

**TASHQI QARZNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI:
XALQARO TAJRIBA VA MAKROIQTISODIY TAHLIL**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya fakulteti 1-bosqich talabasi
Hasanova Madina Zarifjon qizi
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashqi qarzning mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri xalqaro tajriba va makroiqtisodiy modellar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida davlat qarzining ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatish nuqtalari, xususan, "qarz yuki" (debt overhang) nazariyasi va iqtisodiy o'sishning cheklanganlik darajasi o'rganilgan. Maqolada rivojlanayotgan davlatlar misolida tashqi qarzdin foydalanish samaradorligi va qarz barqarorligini ta'minlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tashqi qarzning investitsion jozibadorlik, inflyatsiya va valyuta kursiga ta'siri tahlil qilinib, milliy iqtisodiyot uchun qarz xatarlarini minimallashtirish bo'yicha ilmiy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Tashqi qarz, Iqtisodiy o'sish, qarz barqarorligi, makroiqtisodiy tahlil, qarz yuki nazariyasi, investitsiyalar.

Kirish: Zamonaviy globallashtirish sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda tashqi qarz muhim makroiqtisodiy vositaga aylandi. Ayniqsa, ichki jamg'armalar yetarli bo'lmagan rivojlanayotgan davlatlar uchun tashqi resurslarni jalb qilish texnologik modernizatsiya va infratuzilmaviy cheklovlarni bartaraf etishning asosiy drayveri hisoblanadi. Biroq, tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'siri bir xil chiziqli xarakterga ega emas. Ichki jamg'armalar darajasi past bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar uchun tashqi kapitalni jalb qilish texnologik modernizatsiya, infratuzilmaviy cheklovlarni bartaraf etish va inson kapitalini rivojlantirishning asosiy drayveri hisoblanadi. Biroq, so'nggi yillardagi global iqtisodiy tebranishlar, valyuta kurslarining beqarorligi va foiz stavkalarining ko'tarilishi tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'siri masalasini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Tashqi qarz bir vaqtning o'zida ham o'sishni rag'batlantiruvchi, ham moliyaviy suverenitetga tahdid soluvchi "ikki tig'li qilich" xarakteriga ega bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan qarz mablag'larining yo'naltirilish darajasiga bog'liqdir.

Mavzuga Oid Adabiyotlar Sharhi:

Olimlarning bir necha fikrlarni keltirishimiz mumkin. Bunda Reinhart va Rogoffning tadqiqotlariga ko'ra davlat qarzi YAIMning 90 % idan oshsa iqtisodiy o'sish darajasi keskin pasayadi. Bu holat 2010- yilda tasdiqlangan. Bundan tashqari IMF va Jahon Banki ekspertlari o'z ma'lumotlarida



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

rivojlanayotgan davlatlar uchun bu chegarani pastroq ko'rsatkichda baholashgan. Ular asosan 40-60-% atrofida deb belgilashgan.

Shuningdek, Pattillo va boshqalar (2002) qarz va o'sish o'rtasidagi bog'liqlik to'ng'riqlan "U" (inverted U-shaped) shaklida ekanligini, ya'ni ma'lum bir kritik nuqtadan so'ng qarz iqtisodiyotga zarar keltira boshlashini ko'rsatib berishgan. Zamonaviy tadqiqotchilar (Burnside va Dollar) esa asosiy e'tiborni institutsional sifat va qarz mablag'larining maqsadli ishlatilishiga qaratishmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda tashqi qarz va YaIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha turli nazariy qarashlar mavjud. Neoklassik yondashuvga ko'ra, tashqi qarz kapital tanqisligini to'ldirish orqali investitsiyalarni ko'paytirsam, "qarz soyasi" (debt overhang) nazariyasi (P. Krugman, J. Sachs) qarz yukining haddan tashqari ortishi investitsion faollikni so'ndirishini ta'kidlaydi.

Tadqiqot Metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash maqsadida makroiqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy metodlar qo'llanildi. Xususan, tahlil, taqqoslash, statistik kuzatuv, iqtisodiy modellashirish hamda umumlashtirish metodlari asosiy metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotning nazariy asosini tashqi qarz va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan iqtisodiy nazariyalar tashkil etadi. Tashqi qarz mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va davlat xarajatlarini moliyalashtirish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq qarz hajmining haddan tashqari oshib ketishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli ham mavjud.

Tadqiqotda xalqaro tajribani o'rganish uchun turli mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Jumladan, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi qarzning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati hamda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqildi.

Tahlil Va Natijalar

Jadval tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini makroiqtisodiy ko'rsatkichlar orqali ko'rsatadi. (Xalqaro tajriba asosida)

N .o	Mamlakat	Tashqi qarz / YaIM(%)	YaIM o'sish sur'ati (%)	Investitsiya darajasi(%)	Ta'sir bahosi
1	Janubiy Koreya	40	3.2	29	Ijobiy ta'sir
2	Malayziya	60	4.1	27	Ijobiy va barqaror

O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

3	Turkiya	55	3.5	25	O'rta cha ijobiy
4	Braziliya	70	1.8	21	O'sish sekinlashgan
5	Argentina	85	0.5	18	Salbiy ta'sir
					1-jadval

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tashqi qarzning YaIMga nisbati iqtisodiy o'sish bilan ma'lum darajada bog'liq. Masalan, Janubiy Koreya va Malayziyada tashqi qarz darajasi nisbatan muvozanatli bo'lib, qarz mablag'lari asosan investitsiya va ishlab chiqarish sohalariga yo'naltirilgani sababli iqtisodiy o'sish yuqori darajada kuzatilmoqda.

Braziliya va Argentina misolida esa tashqi qarzning yuqori darajasi iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib kelgan. Bu esa qarz mablag'laridan samarali foydalanish va qarz siyosatini to'g'ri yuritish muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi qarz dinamikasi (2019-2024)

N.o	Yil	Davlat qarzi (mlrd \$)	Tashqi qarz (mlrd\$)	YAIMga nisbati (%)
1	2019	17.8	13.5	29
2	2020	23.4	19.0	34
3	2021	26.3	22.0	38
4	2022	29.2	25.9	36.4
5	2023	34.9	29.6	38.4
6	2024	40.2	33.7	35
				2-jadval

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzi so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2019-yilda davlat qarzi 17,8 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 40,2 mlrd dollarga yetgan. Ushbu qarzning asosiy qismi tashqi qarz hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, tashqi qarz 2022-yilda 25,9 mlrd dollarni, 2023-yilda esa 29,6 mlrd dollarni tashkil etgan. Bu esa davlat investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida tashqi moliyaviy resurslardan faol foydalanilayotganini ko'rsatadi. (UzDaily.uz) Shuningdek, tashqi qarzning YaIMga nisbati ham muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich 2024-yilda



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

taxminan 35 foiz atrofida bo'lib, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan maqbul daraja sifatida baholanmoqda.

Umuman olganda, tashqi qarzning o'sishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun tashqi qarzni samarali boshqarish va qarz mablag'larini yuqori samaradorlikka ega investitsiya loyihalariga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa Va Takliflar:

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tashqi qarz iqtisodiy o'sishga muhim ta'sir ko'rsatadigan makroiqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, tashqi qarz mablag'lari iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga yo'naltirilganda iqtisodiy rivojlanish jarayonini tezlashtirishi mumkin. Biroq tashqi qarzning haddan tashqari ortib ketishi davlat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham ehtimoldan xoli emas. Tadqiqot jarayonida turli mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'siri ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tashqi qarz darajasi muvozanatli bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish barqaror kuzatiladi. Aksincha, qarz yukining yuqori darajasi iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining pasayishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston misolida ham tashqi qarzning so'nggi yillarda ortib borayotganligi kuzatilmoqda. Biroq ushbu qarz mablag'lari asosan infratuzilma, sanoat va investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilayotgani iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, tashqi qarzni samarali boshqarish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- tashqi qarz mablag'larini yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega investitsiya loyihalariga yo'naltirish;

- davlat qarzi barqarorligini ta'minlash maqsadida qarz yukining YaIMga nisbatan maqbul darajasini saqlab qolish;

- tashqi qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish;

- iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirish orqali qarz majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarini kengaytirish;

- davlat qarzini boshqarish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani takomillashtirish.

Umuman olganda, tashqi qarz iqtisodiy rivojlanish uchun muhim moliyaviy manba bo'lishi mumkin. Biroq uning ijobiy ta'siri qarz mablag'laridan oqilona foydalanish va samarali qarz siyosatini yuritishga bevosita bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

1. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Xalqaro moliya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
2. Olimov U., Rasulov B. Makroiqtisodiyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Abdullayev Yo., Sattorov N. Davlat qarzi va uni boshqarish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
4. Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. – New York: Pearson Education, 2018.
5. Reinhart C., Rogoff K. This Time is Different: Eight Centuries of Financial Folly. – Princeton University Press, 2009.
6. Sachs J. Macroeconomics in the Global Economy. – Harvard University Press, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy sayti – (<https://www.imv.uz>)
8. O'zbekiston Markaziy banki statistik ma'lumotlari –(<https://www.cbu.uz>)
9. Jahon banki ma'lumotlar bazasi –(<https://data.worldbank.org>)
10. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi statistik portali –(<https://www.imf.org>)
11. O'zbekiston davlat qarzi statistikasi haqida ma'lumotlar.
12. O'zbekiston tashqi qarzi dinamikasi va iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha tahliliy ma'lumotlar.

